

15-Mart, 2025-yil

## BOSHLANG‘ICH SINIF DARSlikLARIDA FE’L HAMDA FE’L ZAMONLARIGA OID MASHQLARNI TASNIF QILISH

**Fattullayeva Mahzuna Maqsudovna**

*Osiyo xalqaro universiteti o‘qituvchisi*

**To‘xtayeva Sevinch Nasillo qizi**

*Osiyo xalqaro universiteti 2-BT-24 guruh talabasi*

---

**Annotasiya:** *Fe’l ustida izchillik bo‘limlar orasidagi bog‘lanish, programma materialining hajmi, uni har bir sinfda o‘rganish usullari va vositalari shu so‘z turkumini o‘rganish vazifasi, uning lingvistik xususiyatlari va kichik yoshdagi o‘quvchilarning bilish imkoniyatlariga qarab belgilanadi. Maqolada fe’l zamon shakllarining o‘qitilishida mavzuvii izchillikning ahamiyati haqida so‘z boradi.*

**Kalit so‘zlar:** *fe’l, fe’lning zamon shakllari, o‘tgan zamon, hozirgi zamon, kelasi zamon, mavzuvii izchillik.*

---

Fe’l ustida izchillik bo‘limlar orasidagi bog‘lanish, programma materialining hajmi, uni har bir sinfda o‘rganish usullari va vositalari shu so‘z turkumini o‘rganish vazifasi, uning lingvistik xususiyatlari va kichik yoshdagi o‘quvchilarning bilish imkoniyatlariga qarab belgilanadi. “Fe’l” mavzusini o‘rganishda asosiy vazifalar: so‘z turkumi sifatida fe’l haqida dastlabki tushunchani shakllantirish, o‘quvchilar nutqini fe’llar bilan boyitish hamda og‘zaki va yozma nutqda fe’ldan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmasini o‘stirish, o‘quvchilarning aqliy faoliyatini rivojlantirish, grammatik mavzu bilan bog‘liq holda ayrim orfografik qoidalarni o‘zlashtirish hisoblanadi. Bu vazifalar bir-biri bog‘liq holda hal etiladi. Fe’lning lingvistik xususiyatlari xiyla murakkab, shuning uchun boshlang‘ich sinf o‘quvchilari faqat uning muhim nazariyalari bilan tanishtiriladi. Material tanlashda shu materialning nutq va imloga oid vazifalarni hal qilishda qanchalik zarurligini hisobga olinadi. Fe’lni o‘rganishda izchillik. 1-sinfda fe’l ustida ishlash o‘rganish davrida boshlanadi. Bu davrda o‘quvchilarning diqqati fe’lning leksik ma’nosiga qaratiladi; fe’l uchun tipik hisoblangan leksik-grammatik ma’noni, ya’ni predmetning harakatini bildirishni umumlashtirish imkonini beradigan aniq material yig‘iladi. Fe’l ustida ishlash mashqlarini “Alifbe”dagi so‘z va mashqlarni o‘qish, rasimga qarab gap tuzish bilan bog‘lab o‘tkaziladi. Bunda o‘qituvchi o‘quvchilar gap tuzishda mazmunga mos fe’lni topishga, so‘z nimani bildirishini va qanday so‘roqqa javob bo‘lishini aniqlashga yordam beradigan sharoit yaratadi. Masalan, bolalar kuzda meva va sabzavotlarni, daraxtlarni kuzatib yoki rasmlarni ko‘rib, gapni mazmunga mos so‘zlar bilan to‘ldiradilar nima qiladi?... (etiladi), daraxt barglari nima qiladi?... (sarg‘aya boshlaydi), bolalar nima qilayaptilar?... (dam olayaptilar)... (o‘ynayaptilar)... (ishlayaptilar). Fe’lni o‘rganishda maqsadga qaratilgan ishlar harakatni bildirgan so‘zlar mavzusini o‘rganishdan boshlanadi. (1-sinf, o‘quv yilining 2-yarmi), fe’l leksik ma’nosi bilan grammatik ma’nosi (harakat bildirishi) mos keladigan (nima qilayapti?)

yugurayapti, arralayapti, sakrayapti, (nima qildi?) yugurdi, arraladi, sakradi, (nima qiladi?) yuguradi, arralaydi, sakraydi kabi misollardan foydalanish bilan o‘quvchilar o‘zlari bajargan harakatlarni aytishni so‘rab, ular bergan javobni (fe’lni) so‘roqlari bilan doskaga yozib, suhbat o‘tkazish bilan tushuntiriladi. Bolalarni so‘roq berish bilan holat bildiradigan uxlayapti, o‘ynayapti, faxrlanadi kabi fe’llarning ham tanlashga o‘rgatib borish muhim ahamiyatga ega. Bunday mashqlar o‘quvchilarda predmet harakatini keng ma’noda tushunish ko‘nikmasini shakllana borishiga yordam beradi.

Dastur o‘quvchilarda so‘zlarga so‘roq berib, ularni bir-biridan farqlash ko‘nikmasini shakllantirishni talab etadi. Buning uchun o‘quvchi fe’lning har xil formalaridan foydalanib, maxsus mashqlar o‘tkazadi. Nima? So‘rog‘iga javob bo‘lgan so‘z bilan nima qildi? (nima qilayapti? Nima qiladi?) so‘rog‘iga javob bo‘lgan so‘zlar taqqoslanadi: nima? So‘rog‘iga javob bo‘lgan so‘zlar esa predmet bildirishi, nima qildi? So‘rog‘iga javob bo‘lgan so‘zlar esa predmet harakatini bildirishi aniqlanadi. Taqqoslash ot va fe’lni ajratishga o‘rgatadi. Ularning nutqda bir-biriga ta’sir etishini aniqlashga imkon beradi. Fe’lga so‘roq berishga o‘rgatish yuzaki bo‘lmasligi o‘quvchilar harakat bir kishi tomonidan bajarilsa, nima qildi? Nima qilayapti? Nima qilmoqchi? So‘roqlarini berishni bilishlari zarur. Bunday so‘roqlarga javob berishga o‘rgatish o‘z navbatida, fe’l zamonlarini o‘rgatishga tayyorlash demakdir.

1-sinfda morfologik so‘roq so‘z nimani bildirishini aniqlash maqsadida beriladi. O‘quvchilarni so‘zga so‘roq berishga, o‘qituvchi bergan so‘rog‘iga javob bo‘ladigan so‘zlarni tanlashga so‘zni so‘roqda mos ravishda o‘rgatishga (nima qildi? –o‘qidi, nima qilamiz? –o‘qiymiz, nima qilmoqchi? –o‘qimoqchi) kabi o‘rgatiladi. 2-sinfda fe’lni o‘rganish. 3-sinfda fe’lni o‘rganish. Bu bosqichning asosiy vazifasi “fe’l –so‘z turkumi” degan tushunchani shakllantirish, bo‘lishliva bo‘lishsiz fe’llarning ma’nosi va shakliga qarab farqlash ko‘nikmasini hosil qilish, bo‘lishsizlik qo‘shimchasining talaffuzi va imlosini o‘rgatish hisoblanadi. Fe’lning harakat bildirishi yuzasidan o‘quvchilarda aniq tasavvur hosil qilish uchun o‘qituvchilarda aniq tasavvur hosil qilish uchun o‘qituvchi ularga shu darsdagi mehnat jarayonini tasvirlashni, ya’ni bolalarning o‘zlari bajaryotgan ish-harakatni aytishni so‘raydi, suhbat o‘tkazadi. Suhbatda “O‘qituvchi nima qildi? O‘quvchilar nima qildilar? Hozir o‘qituvchi nima qilayapti? O‘quvchilar nima qilayaptilar? Endi o‘quvchilar nima qiladilar? O‘qituvchi nima qiladi?” kabi savollardan ham foydalanadi. Suhbat jarayonida o‘qituvchilar o‘qituvchi rahbarligida fe’llarni so‘rog‘i bilan yozib boradilar. Masalan, nima qildi? So‘zladi, tushuntirdi; nima qildilar? Tingladilar, yozdilar; nima qilayapti? Tushuntirayapti, so‘rayapti, tinglayapti, nima qilayaptilar? Javob berayaptilar, yozayaptilar, tinglayaptilar; nima qiladi? Tekshiradi, ko‘radi; nima qiladilar? Ishlaydilar, bajaradilar, yozadilar. Suhbat va o‘quvchilar aytgan gaplardan birini gap bo‘lagi jihatdan tahlil qilish asosida xulosa chiqariladi: nima qildi? Nima qilayapti? Nima qiladi? Kabi so‘roqlarga javob bo‘lib, predmet harakatini bildirgan so‘zlar fe’l deyiladi. Fe’l gapda kesim vazifasida keladi. Mavzu yuzasidan o‘quvchilarda ko‘nikma hosil qilish uchun so‘roq berib fe’lni aniqlash, gap mazmuniga mos fe’lni tanlab qo‘yish, aralash berilgan so‘zlardan, shuningdek, rasmga qarab gap tuzish kabi mashqlardan foydalaniladi. Dasturga

ko‘ra bu sinfda bo‘lishli va bo‘lishsiz fe‘llar o‘rganiladi. Mavzu suhbat asosida tushuntiriladi. Suhbat o‘qish darsida kimlar o‘qidi? Rahim ham o‘qidimi? Kim so‘zladi? Ravshan so‘zladimi? Ra‘no kutubxonaga boradimi? Abdulla-chi? U qachon bormoqchi? Hozir kim tushuntirayapti? Hozir Halima gapirayaptimi? Savollaridan ham foydalaniladi. O‘quvchilar so‘roq berib fe‘llarni topadilar, ma‘nosini qiyoslaydila va o‘qituvchi rahbarligida tushuntiradilar. Xulosa chiqariladi: fe‘l harakatning yuzaa chiqqanini, ya‘ni bajarilganligini (o‘qidi, so‘zladi, hozir bajarilayotganini (tushuntirayapti), endi bajarilishini (boradi) bildiradi. Bu fe‘llar bo‘lishli fe‘llar deyiladi. Ayrim fe‘llar harakatning bajarilmaganligini (o‘qimadi, so‘zlamadi), hozir bajarilmayotganini (o‘qimayapti), keyin ham bajarilmasligini (bormaydi) bildiradi. Bunday fe‘llar bo‘lishsiz fe‘llar deyiladi. O‘quvchilar bo‘lishli va bo‘lishsiz fe‘llarni so‘roqlari bilan ikki ustun shaklida yozadilar va so‘roqlarini bo‘lishsiz fe‘l qanday hosil bo‘lganini aytadilar. O‘quvchilar bilimli mashqlar bilan mutahkamlanadi, bo‘lishsizlik qo‘shimchasi –ma, -mi shaklida talaffuz qilinsa ham, doim aslicha – ma, -mi shaklida yozilishi tushuntiriladi. O‘quvchilarda bo‘lishli va bo‘lishsiz fe‘llarni ma‘nolarga qarab farqlash ko‘nikmasini o‘stirish uchun bo‘lishli fe‘ldan bo‘lishsiz fe‘l hosil qilish, bo‘lishsiz fe‘llarning talaffuz va yozilishini qiyoslash, bo‘lishsiz fe‘llar bilan gaplar tuzish mashqlaridan foydalaniladi. 4-sinfda fe‘lni o‘rganish.

Bu sinfda fe‘lni o‘rganishning vazifasi:

1. Fe‘lning shaxs-son qo‘shimchalari bilan tuslanishi, zamon qo‘shimchasi bilan o‘zgarishi haqidagi tushunchani berish va dastlabki ko‘nikma hosil qilish fe‘lning leksik ma‘nolari, bo‘lishli va bo‘lishsizligi, gapdagi vazifasi haqidagi bilimni chuqurlashtirish.

2. Nutqda fe‘ldan ongli foydalanish masalasini rivojlantirish. Shu maqsadda nutqda sinonim va antonim fe‘llarning matn bilan bog‘liq holda va ko‘chma ma‘noda ishlatilgan fe‘llar bilan tanishtirib borishga qaratilgan mashqlardan foydalanish.

3. O‘tgan zamon qo‘shimchasining talaqquzi va yozilishi haqidagi ko‘nikmani hosil qilish.

4. Qo‘shma fe‘llar va ularning doim alohida yozilishi haqidagi tushunchani berish va dastlabki ko‘nikmani hosil qilish hisoblanadi.

Fe‘l zamonni formasining mohiyati ish-harakat qachon bajarilishini, ya‘ni ish-harakatning nutq so‘zlanib turgan paytda, undan oldin va keyingi bajarilishini taqqoslash asosida ochiladi. O‘quvchilar o‘zlari bajargan yoki bajarayotgan harakatlarni kuzatadilar, shuningdek, keyin nima qilishlarini muhokama etadilar. Xuddi shunga o‘xshash kuzatishni tabiatda bo‘layotgan o‘zgarishlar yuzasidan ham o‘tkazadilar. Bu mavzu bahorda o‘tiladi. Shuning uchun bolalar kuzatish asosida Bahor keldi. O‘rik, olcha gulladi. Gullar ochilayapti. Endi gilos pishadi. Bahordan so‘ng yoz keldi. Yozda u lagerga bormoqchi kabi gaplar tuzadilar. Gapdagi fe‘llarga so‘roq berib, ish-harakatining bajarilishi payti, ya‘ni ish-harakat bajarilayotganini (nima qilyapti? o‘qiyapti, ochilyapti), oldin bajarilganini (nima qildi? o‘qidi, keldi, gulladi) va keyin bajarilishi (nima qilmoqchi? Yodlamoqchi, bormoqchi) aniqlanadi. Aniq kuzatish asosida yig‘ilgan bu leksik materiallar o‘qituvchi rahbarligida umumlashtiriladi va xulosa chiqariladi.

15-Mart, 2025-yil

1. Fe‘llar zamon bilan o‘zgaradi. Fe‘l uch zamonni bildiradi: hozirgi zamon, o‘tgan zamon, kelasi zamon.

2. Hozirgi zamon fe‘llari nima qilyapti? so‘rog‘iga javob bo‘ladi, hozirning o‘zida, ya‘ni nutq so‘zlanayotgan vaqtda bajarilayotgan harakatni bildiradi.

3. O‘tgan zamon fe‘li nima qildi? so‘rog‘iga javob bo‘ladi, harakatning oldin, ya‘ni nutq so‘zlanayotgan vaqtdan oldin bajarilganini bildiradi.

4. Kelasi zamon fe‘li nima qilmoqchi? so‘rog‘iga javob bo‘ladi, harakatning keyin, ya‘ni nutq so‘zlanayotgan vaqtdan keyin bajarilishini bildiradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari fe‘l zamonlarini unga beriladigan so‘roqdan bilib oladilar. So‘roqdan uning leksik ma‘nosi ham bilinib turadi. Fe‘lning zamon formasini yasash va bilib olish uchun o‘quvchilarni so‘roqlardan to‘g‘ri foydalanishga o‘rgatish ham muhim ahamiyatga ega. Bu maqsadga erishish uchun avval kollektiv ravishda ishlanadi va o‘quvchilar e‘tibori so‘roq bilan fe‘l zamonining bog‘lanishini aniqlashga qaratiladi.

Zamon formasini hosil qilish uchun fe‘lning ikkinchi shaxs-birlik formasi asos qilib olinadi (Boshlang‘ich sinflarda fe‘lning bosh formasi o‘rganilmaydi). Fe‘lga so‘roq berish bilan fe‘l zamoni hosil qilinadi. Bir fe‘ldan uch zamonni hosil qilib, ularni taqqoslash mashqi fe‘lning zamon kategoriyasining mohiyatini tushunishga yordam beradi. Shuning uchun “Fe‘l” mavzusini o‘rganish jarayonida fe‘lni zamon qo‘shimchasi bilan o‘zgartirish mashqi muntazam o‘tkazib boriladi. O‘quvchilarni fe‘l zamonlarini ongli qo‘llashga o‘rgatish maqsadida matnlardan foydalaniladi. Bunda fe‘l zamonini aniqlash va biror fe‘l formasidan foydalanishni asoslash, shuningdek, fe‘l zamonini o‘zgartirish, fe‘llarni muayyan bir zamonda ishlatib hikoya tuzish topshiriladi. Dasturga ko‘ra, bu sinfda fe‘llarda shaxs-son haqida tushuncha beriladi. O‘quvchilarda o‘zbek tilida 3 shaxs: so‘zlovchi (1-shaxs), tinglovchi (2-shaxs), o‘zga (3-shaxs) mavjudligi haqida dastlabki ko‘nikma “Otlarning egalik qo‘shimchalari bilan o‘zgarishi” va “Kishilik olmoshlari” mavzulari o‘rganilayotganda hosil qilingan. “Fe‘llarda shaxs-son” mavzusi shu ko‘nikmaga asoslangan holda tushuntiriladi. Suhbat asosida kishilik olmoshlari 3 shaxsni, birlik va ko‘plikni bildirishi eslatilgach, o‘quvchilarga men olmoshini qatnashtirib gap tuzish topshiriladi. Ular tuzgan gap o‘qituvchi rahbarligida tahlil qilinadi (Men kitobni o‘qidim). O‘quvchilar men 1-shaxs birlikda kishilik olmoshi ekanini aytadilar; o‘qidim fe‘lini so‘z tarkibiga ko‘ra tahlil qilib, o‘qi- o‘zak- di- o‘tgan zamon qo‘shimchasi ekanini aniqlaydilar.

O‘qituvchi quyidagi mazmunda tushuntiradi: ish-harakat so‘zlovchi (1-shaxs), tinglovchi (2-shaxs), o‘zga (3-shaxs) tomonidan bajarilishi mumkin; ikkinchidan, ish-harakat yakka (bir) yoki bir necha shaxs tomonidan bajarilishi ham mumkin. Fe‘llarga qo‘shilib, ish-harakatni bajargan shaxsni va sonni (ko‘plik va birlikni ham bildiradigan qo‘shimchalar bor. Masalan, o‘qidim fe‘lidagi –m qo‘shimchasi shunday ma‘noni bildiradi, u shaxs-son qo‘shimchasidir. Chunki –m o‘qish harakatini bajara shaxsni (1-shaxsni) va sonini (bir kishi bajarganini) bildiryapti, ya‘ni ham shaxsni, ham sonni ifodalayapti. O‘qituvchi (xattataxtaga yozilgan gaplarni ko‘rsatib) “Nuqtalar o‘rniga gapning mazmuniga mos bo‘lgan fe‘llarning shaxs-son qo‘shimchasini topib qo‘yib, gaplarni o‘qish” vazifasini

15-Mart, 2025-yil

topshiradi. Mashq o‘qituvchi rahbarligida birgalikda bajariladi. Suhbat asosida xulosa chiqariladi.

Fe’llar shaxs-son qo‘shimchalari bilan tuslanadi. Shaxs-son qo‘shimchalari zamon qo‘shimchalaridan keyin qo‘shiladi. Fe’llarda shaxs-son haqidagi ko‘nikmani shakllantirish uchun mazmunga mos shaxs-son qo‘shimchalarini qo‘yish, berilgan fe’llarni hozirgi, o‘tgan, kelasi zamonda shaxs-son qo‘shimchasi bilan tuslash, fe’llarni so‘z turkumi jihatdan tahlil qilish mashqlaridan foydalanadi. Bu sinfda qo‘shma fe’llar va ularning yozilishi haqida ham ko‘nikma hosil qilinadi.

#### **XULOSA**

Mavzuni tushuntirish uchun qo‘shma fe’llar ko‘proq bo‘lgan matn tanlanib, matnni o‘qish, so‘roq berib fe’llarni topish, nechta so‘zdan tuzilganini va qanday yozilganini aytish topshiriladi. O‘quvchilar o‘qituvchi rahbarligida vazifani bajaradilar. Suhbat yordamida xulosa chiqariladi: ba’zi fe’llar ikki va undan ortiq so‘zdan tuziladi, bitta so‘roqqa javob bo‘ladi (nima qildi? ko‘rib qoldi, olib chiqdi kabi). Bunday fe’llar qo‘shma fe’llar deyiladi. Qo‘shma fe’llar alohida yoziladi. Qo‘shma fe’llar va ularning yozilishi haqidagi ko‘nikmani shakllantirish uchun matndagi qo‘shma fe’llarni topish va yozilishini tushuntirish, berilgan fe’llardan qo‘shma fe’llar yasash, qo‘shma fe’llar bilan gap tuzish mashqlaridan foydalaniladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. qizi Fattullayeva, M. M. (2024). INSONNING XULQ-ATVORI VA MOTIVATSIYASI. *Methods of applying innovative and digital technologies in the educational system*, 1(2), 301-306.
2. Fattullayeva, M. M. (2024). O ‘QUVCHILARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA ERTAKLAR O ‘QITISHNING NAZARIY VA METODIK ASOSLARI. *PEDAGOG*, 7(4), 243-248.
3. qizi Fattullayeva, M. M. (2024). YOSH VA PSIXOLOGIK RIVOJLANISH: BOLALIKDAN KATTALIKKA QADAR. *Methods of applying innovative and digital technologies in the educational system*, 1(2), 295-300.
4. qizi Fattullayeva, M. M. (2024). PSIXOLOGIYANING UMUMIY TUSHUNCHASI VA ASOSIY SOHALARI. *Methods of applying innovative and digital technologies in the educational system*, 1(2), 289-294.
5. qizi Fattullayeva, M. M. (2024). INSONNING HISSIY TAJRIBALARI VA ULARNI BOSHQARISH. *Methods of applying innovative and digital technologies in the educational system*, 1(2), 307-312.
6. qizi Fattullayeva, M. M. (2024). INSON PSIXIKASINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI. *Methods of applying innovative and digital technologies in the educational system*, 1(2), 313-318.

7. qizi Fattullayeva, M. M. (2024). O ‘QUVCHILARNI BADIY USLUBDAGI MATNLARNI YARATISHGA O ‘RGATISH. *PEDAGOG*, 7(5), 653-663.
8. Maqsudovna, F. M. (2025). BOSHLANG ‘ICH SINFDA LIRIK ASARLAR USTIDA ISHLASH METODIKASI. *YOSH OLIMLAR, MAGISTR VA IQTIDORLI TALABALARNING ILMIY FAOLIYATINI OSHIRISHDA ULARGA QARATILGAN KREATIV G ‘OYALAR, YECHIM VA TAKLIFLAR*, 2(24), 25-28.
9. Maqsudovna, F. M. (2025). BOSHLANG ‘ICH SINFLARDA SINTAKTIK TUSHUNCHALAR USTIDA ISHLASH METODIKASI. *PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(2), 446-449.
10. Fattullayeva, M. (2024). O ‘QUVCHILARNING SO ‘Z BIRIKMASI, GAP USTIDA ISHLASH KO ‘NIKMASINI O ‘STIRISH. *Medicine, pedagogy and technology: theory and practice*, 2(9), 534-542.
11. Rahmiddinovna, A. D. (2024). IQTIDORLI BOLALAR BILAN ISHLASH PSIXOLOGIYASI. The latest pedagogical and psychological innovations in education, 1(2), 248-254.
12. Rahmiddinovna, A. D. (2024). O'QITUVCHI VA O'QUVCHI O'RTASIDAGI MUNOSABATNI BOSHQARISH USULLARI. The latest pedagogical and psychological innovations in education, 1(2), 222-228.
13. Maxmudovna, M. F. (2024). TARBIYA JARAYONINING MOHIYATI VA ASOSIY YO ‘NALISHLARI. Ensuring the integration of science and education on the basis of innovative technologies., 1(3), 141-147.
14. Maxmudovna, M. F. (2024). INCLUSIVE TA'LIM TIZIMI: IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALAR UCHUN YANGI IMKONIYATLAR. Ensuring the integration of science and education on the basis of innovative technologies., 1(3), 162-168.
15. Maxmudovna, M. F. (2024). O ‘QUVCHILARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI VA TA'LIM JARAYONIGA TA'SIRI. Ensuring the integration of science and education on the basis of innovative technologies., 1(3), 128-134.
16. Maxmudovna, M. F. (2024). XXI ASRDA TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING O ‘RNI VA AHAMIYATI. Ensuring the integration of science and education on the basis of innovative technologies., 1(3), 176-182.
17. Maxmudovna, M. F. (2024). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING RIVOJLANISHIDA DIDAKTIK O ‘YINLARNING AHAMIYATI. Ensuring the integration of science and education on the basis of innovative technologies., 1(3), 120-127.
18. Maxmudovna, M. F. (2024). OILAVIY TARBIYA VA MAKTAB TA'LIMI INTEGRATSIYASI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR. Ensuring the integration of science and education on the basis of innovative technologies., 1(3), 169-175.
19. Maxmudovna, M. F. (2024). O ‘QITUVCHI VA O ‘QUVCHI O ‘RTASIDAGI MUNOSABATLAR: MOTIVATSIYA VA NATIJALAR. Ensuring the integration of science and education on the basis of innovative technologies., 1(3), 183-189.

15-Mart, 2025-yil

20. Maxmudovna, M. F. (2024). RIVOJLANGAN TA'LIM TIZIMLARINING O'QUVCHILAR SHAXSIGA TA'SIRI. Ensuring the integration of science and education on the basis of innovative technologies., 1(3), 135-140.